

---

## Milliy liboslar – qadriyatlarimiz ko'rki

Qo'shtepa tumanidagi 18-umumiy o'rtta ta'lim maktabida "Milliy liboslar – qadriyatlarimiz ko'rki" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Yoshlar o'rtasida milliy liboslarimiz va qadriyatlarimizni targ'ib etish maqsadida tashkillangan tadbirda xalqimizning ko'p asrlik o'tmish madaniyati, urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari, shuningdek, tashqi qiyofa va libos borasidagi o'ziga xos xususiyatlari yana bir bor namoyish etildi.

Tadbirda milliy matolardan tikilgan zamonaviy liboslar barcha yoshdagi o'zbek qizayollariga yarashishi, qolaversa, bu kabi kiyimlar xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizda milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat tuyg'ularini yanada yuksaltirishi ta'kidlandi.

2025-02-05 13:47:36